

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№12

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal


2025 dekabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 112 sahifa.
2025-yil, dekabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RASMIY RIVOJLANISH YORDAMI (OFFICIAL DEVELOPMENT ASSISTANCE, ODA) ORQALI O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	24
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug'ova Maftunabonu To'iqinovna	
INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEADING WHEAT-PRODUCING COUNTRIES.....	28
Turayeva Gulizahro	
BLOKCHEYN TIZIMLARI UCHUN XESH FUNKSIYALARNI TANLASH MEZONLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	32
Abduraximov Baxtiyor, Allanov Orif, Turdibekov Baxtiyor	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQUARISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH MODELLARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	39
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
ISSIQLIK AKKUMULYATORINING RAZRYADLANISH JARAYONIDA SUYUQLIK QATLAMLARIDA HARORAT TAQSIMLANISHINING BIR O'LCHOVLI MODELI	43
B.A. Hikmatov, M.S. Mirzayev	
ISLOM MOLIYASI TAMOYILLARI ASOSIDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	49
Safarova Nasiba Gulmurod qizi	
ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ.....	54
Даниярова Улбосын Куатбаевна	
YANGI TURDAGI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARI KO'RSATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH	58
Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna	
HALQALI YIGIRISH MASHINASIDA BURAM UCHBURCHAGINING IP UZILISHIGA BOG'LIQLIGINI TADQIQI.....	62
Soliyev Azizbek Kamoldinovich	
НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ТУРИЗМА 2030: СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА	69
Гольшева Елена Вячеславовна	
STRATEGIK JARAYONNING MODELLARI	76
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ОЦЕНКИ СТОИМОСТИ КВАРТИР В МНОГОЭТАЖНЫХ ДОМАХ.....	81
Уринов Адхамжон Акбарович	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	88
A.Xakimov, X.Xakimov	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI.....	95
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARINING KETMA KETLIGI	102
Xusanova Maloxat Mengnorovna	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA LOGISTIKA XARAJATLARI TAHLILI	107
Saidova Kamola Xoshimovna	



TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA LOGISTIKA XARAJATLARI TAHLILI

Saidova Kamola Xoshimovna

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada sanoat korxonalarida logistika bilan bog'liq jarayonlar, bu yo'nalishda korxonalar xarajatlarini kamaytirish yo'llari, shuningdek, obyekt sifatida olingan korxonalarda logistika xarajatlari tahlili va uni kamaytirish bo'yicha takli-tavsiyalar xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: to'qimachilik korxonalar, logistika xarajatlari, tahlil, ta'minot zanjiri, optimallashtirish, samaradorlik, omborxonalar xarajatlari, transport xarajatlari, xarajatlarni boshqarish, raqobatbardoshlik.

Abstract. The article discusses processes related to logistics in industrial enterprises, ways to reduce enterprise costs in this area, as well as analysis of logistics costs in enterprises taken as an object and recommendations for their reduction.

Keywords: textile enterprises, logistics costs, analysis, supply chain, optimization, efficiency, warehouse costs, transportation costs, cost management, competitiveness.

Аннотация. В статье рассматриваются процессы, связанные с логистикой на промышленных предприятиях, пути снижения затрат предприятий в этой сфере, а также в качестве объекта взят анализ затрат на логистику на предприятиях и даны рекомендации по их снижению.

Ключевые слова: текстильные предприятия, затраты на логистику, анализ, цепочка поставок, оптимизация, эффективность, складские расходы, транспортные расходы, управление затратами, конкурентоспособность.

KIRISH

Logistika klasterining funksional unsurlaridan biri bo'lib hisoblanadi va nafaqat korxonalar ichida, balki uning tashqarisida ham raqobatchilik ustunliklarini yaratadi. Ta'minot zanjirida mo'ljaldagi firmaning raqobatli siyosati amalga oshiriladi; logistik faollik real vaqt rejimida yuzaga chiqarilib, ta'minot zanjirida sheriklar bilan munosabatlarni to'g'ri strategik pozitsiyalash vaziyatida samarali bo'ladi.

Shuning uchun ta'minot zanjirini boshqarish korxonalar faoliyatida strategik ahamiyatga ega bo'ladi, chunki barcha biznes-jarayonlar – xom-ashyo va materiallarni sotib olishdan tortib iste'molchilarga tayyor mahsulotni yetkazib berishgacha bo'lgan jarayonlar samaradorligini oshirish uchun imkoniyat paydo bo'ladi. Ta'minotning bu funksiyalari iste'molchilarning murakkablashib boruvchi talablariga tezkor va samarali javob berish qobiliyatini hisobga olgan holda rejalashtiriladi.

Shunday qilib, logistika jarayonlarini samaradorligini oshirishga va uning boshqarilishini optimallashtirishga zarurat mavjud bo'ladi, bu kerakli joyga mahsulotni o'z vaqtida yetkazib berish hisobiga minimal sarflar bilan mijozlar ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqarish hamda taqsimlash jarayonlarini bir vaqtning o'zida rejalashtirish, moliyalashtirish, muvofiqlashtirish va boshqarishni talab qiladi. Bu jihatdan tejamkor dastaklar va yondashuvlar hozirgi murakkab dunyoda to'qimachilik va tikuvchilik kompaniyalarining samaradorligini oshirish uchun ta'minot zanjirida qaror qabul qilish jarayoni rivojlanishiga yordam beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat korxonalarida xarajatlarni kamaytirish masalasida ko'p olimlar ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishgan. Ularning har biri xarajatlarning u yoki bu yo'nalishda qisqartirish xususida so'z yuritadi.

Bodyalo, Garskaya, Filimonenkovalarning fikricha, sanoat korxonalarida xarajatlarni kamaytirishning samarali usullaridan biri – bu qayta ishlashning tugallangan yakuniy mahsulotgacha olib borilishidir. Bu qayta ishlash zanjirida qo'shilgan qiymatni yuqori bo'lishiga, oqibatda umumiy qiymatda xarajatlarni ulushi qisqarishiga olib keladi. [1]

B.Davlyatov o'z ilmiy tadqiqotlarida paxta-to'qimachilik klasterlarida xarajatlarni kamaytirishning muhim omillaridan biri sifatida "masshtab effekti"dan foydalanish imkoniyatini keltiradi. Katta hajmda ishlab chiqarish



doimiy xarajatlarni o'zgartirish hisobiga bir birlik mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi. To'qimachilik klasterlari bir qancha korxonalarini birlashtiradigan tuzilma ekanligini inobatga olsak, ularda bu omildan foydalanish imkoniyati yuqori. [2]

Siskevich esa sanoat korxonalarida xarajatlarni kamaytirishda yordamchi usullarni avtomatlashtirish, yarimavtomatlashtirish jarayonlarini o'rniga e'tibor qaratadi. Uning ta'kidlashicha, aynan yordamchi usullar korxonalarda vaqtni bexuda ko'p sarflanishiga olib keladi. [3]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida ilmiy tadqiqot metodologiyasidan kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

To'qimachilik tarmog'idagi biznes-jarayonlar transformatsiyalashuvi talab va taklif o'rtasida eng yaxshi tarzda moslikni ta'minlash uchun ishlab chiqarish quvvatlarining moslashuvchanligini e'tiborga oladi. Operativ rejalashtirish darajasida biz ichki moliyaviy manbalar yetishmasligining o'rnini qoplash uchun mijozlar buyurtmalarini bajarish qisqa muddatlari hamda talabning tebranishlari bilan kelib chiqadigan ortiqcha vaqt ishlaganlik va subpudrat ishlarini hisobga olamiz.

Ta'minot zanjirida logistik biznes-jarayonlar va ularning transformatsiyalashuvi kompaniyalar samaradorligi va ichki asosiy moliyalashtirish manbasi hisoblangan klaster foydasini oshirish uchun asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyot, shuningdek, logistikaga ham ta'sir ko'rsatadi, chunki ularni boshqarish moddiy tovarlar bilan jips bog'liqdir. Biroq, raqamli texnologiyalarga xos bo'lgan modullilik yetakchi firmalarga o'z biznes-jarayonlarida innovatsiyalarni joriy qilishga kuchni to'plashga imkon berib, bu bilan bir vaqtda ishlab chiqarish faoliyati kamroq qiymat bilan autsorsingga berilishi mumkindir, bu jarayonni ham moliyalashtirish, ham tashkil qilish va boshqarish kabi keng vazifalar tarmog'idan, faqat moliyalashtirish vazifasigacha qisqarishiga olib keladi, klaster intellektual salohiyatini boshqa yo'nalishlarga, jumladan, innovatsiyalarni keng joriy qilish ishlariga qaratadi.

Modulli tizimlar uchun an'anaviy ravishda qo'llaniladigan dastaklardan farq qiladigan dastaklar zarur bo'ladi; bu vaziyatda mahsulot ishlab chiqarishda sifat menjmentini joriy etish, xalqaro sertifikatlar olish bilan bog'liq ishlarni moliyalashtirish, sifat standartlarini nazorat qilishga imkon beruvchi raqamli dastaklar va tizimlardan foydalaniladi. Bundan kelib chiqib, asosiy raqobatchilik ustunliklari raqamli va innovasion, shuningdek moliyaviy resurslarni nazorat qila olish imkoniyatlari resurslarga ega bo'lgan korxonalar ixtiyorida to'planadi.

O'zining ravshanligi, moslashuvchanligi, operativligi, yaxlitligi va avtomatlashuviga bog'liq holda yangi avlod texnologiyalari ishlab chiqarishning, bu jarayonni moliyalashtirishning, shu jumladan, paxta-to'qimachilik klasterlarining yangi paradigmasida keng qo'llaniladi.

Real vaqtda texnologiya jarayonlarni monitoring qilish, mahsulotni kuzatib borish, moliyalashtirishning maqsadlilikini ta'minlash, moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojni bashorat qilish, omborda robotlarni va "aqli datchiklar"ni qo'llash singari ilg'or texnologiyalarning qo'llanilishi to'qimachilik bozorida klasterlarning xavfsizligini va texnologik yetakchiligini ta'minlashga yordam beradi. Bu barcha yondashuvlar ishlab chiqarish jarayoni to'planayotgan ma'lumotlarni olish, uzatish, birlashtirish va saqlashga imkon beruvchi ma'lumotlarning majmuaviy infratuzilmasi asosida tuzilishini talab qiladi.

To'qimachilik korxonalarida logistika zanjirini samarali tashkil etilgan tizimiga amal qilishining asosiy shartlaridan biri bo'lib uning o'zaro bog'langan tizimi hisoblanib, u tovarlar, xizmatlar, ishchi kuchi oqimlarini, jumladan moliyaviy oqimlarni ta'minlaydi va bozor kon'yunkturasi o'zgarishlari ostida bozor tizimi ichida ko'chadi.


Logistikada ta'minot maqsadi – bu majmuaviy tizim bo'lib, u o'z ichiga mahsulotni ishlab chiqarish, saqlash, tashish va taqsimlash, shuningdek bu jarayonlarni moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan barcha jarayonlarni oluvchi tovarlarning ta'minotchidan yakuniy iste'molchigacha yetib borishidagi barcha bosqichlarni qamrab oladi.

Logistikani optimallashtirishda normativ va pozitiv tahlilning qo'llanilishi korxonalar logistikasini takomillashtirishga qaratilgan turli xildagi ehtimoliy yechimlarning kombinatsiyasini anglatadi. Normativ tahlildan foydalanishda logistik tizimni takomillashtirishning yirik vazifasi optimal variantni tanlab olish uchun boshqa kichik vazifalar bilan olib ko'riladigan va kombinatsiyalashtiriladigan uncha katta bo'lmagan vazifalarga bo'linadi.



Turli xildagi uyg'unliklardagi ko'p sonli ko'rib chiqilayotgan vazifalarga ega bo'linganidan keyin baholash parametrlarining mos holdagi tizimidan tanlab olingan optimal va samarali variantning tanlanishi amalga oshiriladi.


“Xorazm tex” MCHJ uchun logistika xarajatlari tuzilmasini ko'rib chiqamiz. “Xorazm tex” MCHJning logistik xarajatlari tuzilmasi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. “Xorazm tex” MCHJ ning 2021-2023 yillardagi logistik xarajatlarining tuzilmasi¹.

Logistika tizimini soddalashtirish uchun rejalashtirishning yagona markazi ta'minotidan foydalanish mumkin. Mazkur chora-tadbirlarning qabul qilinishi materiallar ta'minoti uzilishlarini kamaytiradi va logistik zanjir javobi vaqtini qisqartirish bilan o'z muddatida bajarilgan buyurtmalar sonini oshirishga imkon beradi.

Logistik infratuzilmani shakllantirishda logistik jarayonlarni, ta'minot tuzilmasi va zanjirlarini modellashtirish hamda optimallashtirish muammosi tobora ko'proq ravishda axborotli-kompyuterli modellashtirish va dastlabki ma'lumotlarning to'liq emasligi hamda bir xil bo'lmisligi sharoitlarida qaror qabul qilish mantig'idan foydalanish tomonga qarab siljib bormoqda.



2-rasm. “Gurlan-baraka teks” MCHJ da 2021-2023 yillardagi logistik xarajatlar tuzilmasi².

1 “Xorazm tex” MCHJ ma'lumotlari asosida muallif hisob kitoblari b'uyicha tuzilgan.

2 Muallif hisob kitoblari b'uyicha tuzilgan.



“Gurlan-baraka teks” MCHJ moliyalashtirish ishlarining samarasizligi sababli zahiralarni aylantirishning past darajasiga ega bo‘lib, bu ishlab chiqarish rentabelligining pasayishiga olib keladi, shuning uchun zahiralarni optimallashtirish yoki ularni moliyalashtirish ishlarini qayta ko‘rib chiqish zarurati paydo bo‘ladi. Biz klasterda mavjud moliyalashtirish mexanizmiga zahiralarni bilan bog‘liq jarayonlarni moslashtirish zarur deb hisobladik.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan shuni xulosa qilish mumkinki, sanoat korxonalarida xarajatlarni kamaytirishning muhim yo‘nalishlaridan biri – bu logistika jarayonini optimallashtirishdir. Yirik sanoat komplekslari, xususan klasterlarda ushbu jarayonni kklasterdan tashqarida tashish, klaster ichidagi korxonalar o‘rtasida tashish va korxonada ichida tashish kabi uch guruhga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq. Bunda xomashyoni olib kelish, korxonada ichidagi tashish, tayyor mahsulotni olib chiqib ketish ishlarini optimal variantlarini ishlab chiqish va eng optimal variantni tanlash xarajatlarni qisqartirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. N.N. Bodyalo*, N.P. Garskaya, R.N. Filimonenkova. Metodika rascheta snijeniya zatrat vremeni na texnologicheskiye operatsii shveynyx potokov. Vvestnik Vitebskogo gosudarstvennogo texnologicheskogo universiteta, 2016, № 2 (31);
2. B.Davlyatov. Sanoatni rivojlantirishda paxta-to‘qimachilik korxonalarini klasterlashtirishning tashkiliy – iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 2023 yil.
3. Siskevich, Ye.S., Bodyalo, N.N., Raschet normy vremeni naobrabotku klapanov, Materialy dokladov Mejdunarodnoy nauchno-tyexnicheskoy konferensii prepodavateley i studentov, Vitebsk, 2016.
4. “Xorazm tex” MCHJ va “Gurlan-baraka teks” MCHJlarining hisobot ma‘lumotlari.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100